


8-dars. Sonlarni qo'shish va ayirish



1. Jami necha kilogramm jun yig'ib olindi?



Sonlarni tasvirlash uchun ko'pincha grafik modellardan foydalaniladi.



– o'nlik

• – birlik

Masalan, 23 sonini quyidagicha tasvirlash mumkin:



2. Grafik model ko'rinishida tasvirlang:

24 va 14, 37 va 12, 71 va 28 sonlari yig'indisini;

76 va 15, 65 va 24, 99 va 25 sonlari ayirmasini.

Namuna:

$$17 + 22 = 39$$



$$37 - 25 = 12$$



3. Xo'jalikda 25 kg jigarrang, 11 kg oq va 21 kg sarg'ish tuya junlari yig'ib olindi. Jami necha kilogramm jun yig'ib olingan?





4. Yig'ib olingan jundan ko'rpa, yostiq va kiyimlar tikildi. Jadvaldan jami nechta predmet tikilganligini hisoblang.

ko'rpa	yostiq	paypoq	sharf
12	10	16	21



5. Tenglamalarni yeching.

$$x + 24 = 56$$

$$80 - x = 30$$

$$x - 11 = 45$$



6. Misollarni qoida bo'yicha yeching: har bir keyingi misolning boshlanishi oldingi misolning javobiga teng. Qanday so'z hosil bo'ldi?




$$12 + 11$$



$$20 - 8$$



$$22 + 4$$



$$23 - 3$$



$$12 + 10$$



7. Sut uchta bidonga quyildi: birinchi bidonga 8 litr, ikkinchisiga 11 litr, uchinchisiga esa 10 litr. Bidonlarga jami nechta litr sut quyildi?

8. Ikki o'rkachli tuya yana qanday nomlanishini toping.

A $14 + 32$

Q $60 - 20$

B $89 - 42$

N $77 - 34$

I $10 + 31$

R $85 - 54$

T $60 - 10$



47

46

40

50

31

41

46

43

